

**CHO'LPON – JADIDCHILIK HARAKATINING YETUK NAMOYANDASI****Keldiyeva SHahnozaxon SHuhratbek qizi**

Ijtimoiy gumanitar fanlar va san'at fakulteti o'qituvchisi.

**Xudoyberdiyeva Muhayyo Alisherjon qizi**

Andijon Davlat Pedagogika Instituti,

Maktabgacha ta'lim fakulteti Logopediya yo'nalishi 102-guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14245131>

*Annotsiya.* Ushbu maqolada Cho'lponning jadidchilik harakatidagi o'rni, yangi davr o'zbek nasri rivojiga salmoqli hissa qo'shganli, ijodining o'ziga xosligi, milliy uyg'onish davri adabiyotida tutgan o'rni, Cho'lponning xalqni ozodlikka chiqarish, xalq ko'zini ochishi, el-yurt kamolatini o'ylash yo'lidagi harakatlariga to'xtalib o'tilgan.

*Kalit so'zlar:* Cho'lpon ijodi, jadid adabiyoti, milliy uyg'onish, millat qayg'usi, qatag'on, jadidchilik, xalq.

**CHOLPON IS A MATURE REPRESENTATIVE OF THE MOVEMENT OF JADITH**

*Abstract.* In this article, Cholpon's place in the movement of Jadidism, his significant contribution to the development of Uzbek prose in the new era, the uniqueness of his work, his place in the literature of the national renaissance period, Cholpon's liberation of the people, people's vision His efforts to open himself up and think about the perfection of the country were touched upon.

*Key words:* Cholpan's work, modern literature, national revival, national grief, repression, modernism, people.

**ЧОЛПОН – ЗРЕЛЫЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЬ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИТ**

*Аннотация.* В данной статье рассматривается место Чолпона в модернистском движении, его значительный вклад в развитие узбекской прозы новой эпохи, уникальность его творчества, его место в литературе эпохи национального Возрождения, освобождение Чолпона от народа. были затронуты усилия открыть людям глаза и задуматься о совершенстве страны

*Ключевые слова:* творчество Чолпана, современная литература, национальное возрождение, национальное горе, репрессии, модернизм, народ.

Turkistonda milliy uyg'onish va yoki jadidchilik harakatining o'rganila boshlaganiga qariyb yigirma yil bo'lishiga qaramay, jadidchilik namoyondalari va ularning ijodi bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirildi.

Bu harakat namoyondalarini o'rganishga bo'lgan qiziqish nafaqat O'zbekiston, Markaziy Osiyo, balki Germaniya, AQSH, Fransiya, Yaponiya, Turkiya kabi mamlakatlardagi olimlarning ham faol shug'ullanayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Milliy uyg'onish davrining eng buyuk namoyondalaridan biri bo'lgan Cho'lponning shaxsiyati va hayoti haqida har xil qarashlar, talqinlar mavjud. Bu haqida taniqli adabiyotshunos Dilmurod Quronov asosli dalillar bilan ilmiy izlanishlar olib borgan. D. Quronovning Cho'lpon haqidagi izlanishlari tahsinga sazovordir. Natijalariga ko'ra O'zbekiston Milliy universitetida 1993-yili "Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida xarakterlar psixologizmi" mavzusida nomzodlik va 1998-yili "Cho'lpon poetikasi (nasriy asarlari asosida)" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Bundan tashqari "Cho'lpon nasri poetikasi", "Istiqlol dardi.

Cho'lponning ijtimoiy-siyosiy qarashlari tadriji" nomli kitoblari adabiyotshunoslik fanida fundamental manba sifatida o'rin qoldirdi.

Jadidlar endi paydo bo'lgan vaqtlarda ular xalqning ko'ziga yomon ko'rinishgan. "Nega bu gazetani chiqarishyapti?", "Maktab, madrasalarimiz bo'la turib, nima uchun yana maktab ochishyapti?", "Ularning maktabida globus degan narsa borakan, yerning ham shari bo'ladimi?", "Bular kofirlarning malaylari", degan turli gap-so'zlar bilan jadid maktabi va teatrining ochilishiga, ayollarning sahnaga chiqishiga qarshilik ko'rsatishgan. Keyinroq Sovet davlati ham jadid so'zidan, jadidlardan qo'rqadigan bo'ldi va ular jadid harakatlarini butkul yo'qotishga qattiq kirishdi. Ommaviy yo'q qilishga ilk urinishlar 1920-yillarda boshlangan. 1920-yilda Munavvar qori tashabbusi bilan "Milliy ittihad" tashkiloti tuzilgan. Kim o'zbek xalqining mustaqil bo'lishini istagan bo'lsa, barchasi shu tashkilot a'zosi hisoblangan.

Lekin ular amalda tayinli bir ish qilish imkoniga ega bo'lmagan. Chunki ularning hammasining orqasidan agentlar yurgan. NKVDning xodimlari ayrim a'zolari qo'rqitib, ulardan ma'lumotlar olishgan. Har tomonlama siquv ostiga olingan "Milliy ittihad" 1925-yil boshlarida o'zini tarqatilgan deb e'lon qiladi va keyinchalik uning asosida "Milliy istiqlol" tashkiloti tuziladi.

Bu yashirin tashkilot nafaqat O'zbekistonda, balki butun O'rta Osiyoda demokratik respublika tamoyillariga asoslangan tuzum o'rnatishni o'z faoliyatining asosiy yo'nalishi deb hisoblaydi. Biroq 1929-yilning noyabrda Toshkentda Munavvar qori boshchiligidagi 38 kishi bu tashkilotning a'zosi sifatida qamoqqa olinadi.

Keyinchalik ularning soni 87 kishiga yetgan. Tergov jarayoni Toshkentdan Moskvaga ko'chiriladi va ular qatag'on qilindi. Bu harakat tarixga "Milliy ittihad ishi" nomi bilan kirgan.

O'zbek she'riyatining yetuk namoyandalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li 1897-yilda Andijonning Qatorterak mahallasida savdogar oilasida dunyoga kelgan bo'lib, Cho'lpon uning adabiy taxallusidir.

Otasi Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus o'g'li (1874–1929) dastlab dehqonchilik, so'ngra bazzozlik bilan shug'ullangan. Taniqli jurnalist va yozuvchi Mo'minjon Muhammadjonov "Turmush urinishlari" kitobida qayd etishicha, Cho'lponning otasi Sulaymonqul o'z davrining yetuk ziyolisi, ma'rifatparvar kishisi bo'lgan. U "Rasvo" taxallusi bilan she'rlar ham yozgan, devon yaratgan. Sulaymonqul farzandining bilim olishini qo'llab-quvvatlaydi hamda zarur shart-sharoitlar yaratib beradi. Ta'lim olish uchun madrasalardan biriga o'qishga beradi. Keyinchalik shoir rus-tuzem maktabida ham tahsil olgan.

Biroq qaysi maktab va madrasada o'qigani haqida aniq ma'lumot yo'q. Balki, rus-tuzem maktabida o'qimagan bo'lishi ham mumkin. Cho'lpon yashagan davrdagi rus-tuzem maktablarida uning ism-sharifi qayd qilinmagan. Cho'lpon otasiga yordam berish maqsadida bazzozlik bilan ham shug'ullanadi. Biroq asosiy faoliyati yoshligidanoq ko'ngliga tugib qo'ygan ma'rifatchilik harakati edi. Bo'lg'usi shoir 1913-yildayoq turk tarixiga doir asarlar bilan tanishgan, so'ngra "Turk yurdi" va "Sayra" kabi nashrlarni muntazam kuzatib borgan. M.Muhammadjonov 1916-yilda Cho'lpon bilan ilk bor uchrashganini eslab: "Abdulhamid har kuni xususiy ravishda ruscha o'qir edi. Tatariston, Ozarbayjon, Hindistonda chiqadigan hamma gazeta va jurnallarga mushtariy bo'lib, ruscha gazetalarni ham o'qib turar edi", — deydi. Shuncha gazeta-jurnallar, ayniqsa, chet elda chiqadigan nashrlar obunasi anchagina mablag'ni talab qiladi, ya'ni bazzoz Sulaymonqul o'g'lining bilim olishi uchun molini ayamaganini ko'rsatadi. Cho'lponning rus tilini mustaqil tarzda o'rganishi uning yana bir yorqin iste'dodlaridan biridir. Tarjima sohasida qilgan sermahsul ijodi buning yaqqol dalilidir.

Cho'lpon o'n yetti yoshidanoq jadid nashrlari bilan aloqa bog'laydi, ularda avvaliga kichkina xabarlar, so'ng nazmiy va nasriy mashqlari, publitsistik maqolalari bilan qatnasha boshlaydi. E'tiborlisi, u nafaqat Turkiston, balki Qrim, Tatariston, Boshqirdistonda chop etilgan gazeta-jurnallarda ham ijod namunalari bilan qatnashishga harakat qilgan. Cho'lponning matbuotda chop etilgan ilk asari "Sadoyi Turkiston"ning 1914-yil 3-sonidan joy olgan "Turkistonli qardoshlarimizga" she'ridir. Shundan so'ng "Sadoyi Turkiston" va "Sadoyi Farg'ona" gazetalarida birin-ketin "Qurboni jaholat", "Doktor Muhammadiyor" nomli hikoyalari, "Bahor avvallari" etyudi, "Adabiyot nadir?" va "Muhtaram yozg'uchilarimizga" nomli adabiy-tanqidiy, "Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik" hamda "Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar" nomli publitsistik maqolalari e'lon qilindi.

Albatta, mazkur asarlar mukammallikdan ancha yiroq, biroq adibning ijodkor va shaxs sifatidagi o'sishini kuzatish uchun g'oyat muhim. 1914–1915-yillardagi "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" gazetalarini bilan hamkorlik Cho'lpon uchun qo'shimcha mashg'ulot edi, asosiysi esa savdo ishi bo'lgan.

Ushbu nashrlar to'xtagach, 1915–1917-yillarda Andijonda chop etilgan “Turkestanskiy golos” gazetasi tahririyatida ishlagani professional jurnalistik faoliyati boshlanganidan darak beradi. 1920-yillarda Cho'lpon shoir sifatida shuhrat qozondi, yangi o'zbek she'riyatining chinakam lideriga aylandi va e'tirof etildi. Davr matbuotida e'lon qilingan va “O'zbek yosh shoirlari” jamoa to'plamiga kirgan she'rlari, “Uyg'onish” (1922), “Buloqlar” (1922), “Tong sirlari” (1926) to'plamlari o'quvchilar tomonidan iliq kutib olindi. Shu yillarda markaziy matbuotda Cho'lpon she'riyati haqida iliq fikrlar aytildi: Z.Bashir, A.Sa'diy, V.Mahmud kabi munaqqidlarning maqola va taqrizlari e'lon qilindi. 30-yillarning boshida Cho'lpon “Kecha va kunduz” roman-dilogiyasiga qo'l urdi. Uning birinchi qismi “Kecha” romanini Cho'lpon Moskvada ekanida yozib tugatgani haqida ma'lumotlar bor. Sirasi, adibning 1937-yil aprelida Yozuvchilar uyushmasida aytgan gaplaridan ham shu narsa anglashilib turadi. Cho'lpon bilan Moskvada bordi-keldi qilib turgan Y.Maqsudov va V.Rashidovlarning xotiralarida “Kecha”ning tugallangan vaqti turlicha ko'rsatiladi. Y.Maqsudov Cho'lpon bu romanni 1934-yilda tugatganini aytsa, V.Rashidov 1933-yil kuz oylarida adibning uyida mehmon bo'lganlarini eslab: “Bizga choy berib, qo'lga yozilgan varaqlarni olib, “Men “Kecha va kunduz” degan roman yozayotibman, hozir “Kecha”ni tugatdim. Yana bir ko'rib chiqishim qoldi, mana 3-4 sahifasini o'qib beray”, deb qo'lidagi qo'lyozmani o'qiy boshladi. O'qish bir joyga borganda har uchovimizning ham miyamizda “Bu roman dunyo yuzini ko'rarmikan?” degan savol ko'ndalang turardi.

Biz Cho'lponning fikrini so'raganimizda, u sukutga ketib, “Bilmadim, ruxsat berarmikanlar, yoki shuncha yozilgan she'rlarim singari qayerlarda qolib ketarmikan”, deb qo'ydi”, — deb yozadi. V.Rashidov xotiralarida Cho'lponning shu yil oxirlarida Moskva safarida bo'lgan A.Ikromovga roman qo'lyozmasini o'qish uchun berib yuborgani ham aytiladi. Asar dilogiya sifatida rejalashtirilgan bo'lib, uning birinchi qismi “Kecha” romani 1936-yilda nashr etildi. “Kunduz”ning yozib tugatilgani-yu nashriyotga topshirilgani haqida gaplar yursa-da, ularni tasdiqlovchi hujjatlarga ega emasmiz. Faqat shunisi aniqki, Cho'lpon hibsga olinganida xatlangan narsalar orasida “hali tugallanmagan roman qo'lyozmasi” ham bo'lgan.

O'sha qo'lyozmaning “Kunduz” romani bo'lishi ehtimoli haqiqatga ancha yaqin ko'rinadi.

Afsuski, qo'lyozmaning keyingi taqdiri hozircha ma'lum emas. Shu bois adabiyotshunosligimizda “Kecha va kunduz”ni tugallanmagan asar sanash lozimmi yoki tugallangan debmi, degan masalada turlicha qarashlar bor. Ziyolilar ko'pincha yarim kechasi, odamlar uxlagan, mahalla tinch paytda uyidan olib ketilgan. Ularning yaqinlari yig'lasa, yig'i ovozi tashqariga chiqmasligini aytib, harbiylar qattiq qo'rqitishgan. Asosan, ko'p kitob o'qiydiganlar va qo'lida qalami bor ijodkorlarning uyida tintuv o'tkazilgan. Tintuv vaqtida topilgan har qanday qiymatli narsalar: hujjatlar, kitoblar va boshqalar xatlovga olingan.

Ayrim mahbuslar ish joyida qo‘liga kishan solib, olib ketilgan. 4-oktabr sanasi o‘zbek xalqi uchun og‘ir va qonli kunlardan biri sifatida tarixga kirgan. 1938-yilning aynan mana shu kunida o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan taraqqiyparvarlari otib tashlangan. Turli yolg‘on-bo‘htonlar bilan qatag‘on mashinasining qurboni bo‘lgan ziyolilarga na janoza o‘qilgan, na kafan o‘ralgan. Hatto ular sud hukmi o‘qilmasidan o‘ldirib yuborilgan. 1938-yilning 4–7-oktabr kunlari ro‘y bergan fojialar ham Stalin, Molotov, Kaganovich, Voroshilovlar rahbarligida tuzilgan ro‘yxat asosida amalga oshiriladi. Bu shaxslar shu yilning 28-mart kuni yuzlab ziyolilarni qatag‘on qilishga oid ro‘yxatga imzo qo‘yadi. 4-oktabrdan 5-oktabrga o‘tar kechasi, hamma uxlagan vaqtda Fitrat, Abdulla Qodiriy, Otajon Hoshim kabi ziyolilar hozirgi Toshkent shahrining Yunusobod tumanida joylashgan NKVD maxsus poligonida otib tashlangan.

Ularning barchasi bitta chuqurga kafansiz, janozasiz maxfiy ravishda dafn etilgan. Jasadlar tezroq chirib ketishi uchun ustilaridan yo‘xlor sepishgan yoki tezak tashlashgan. Cho‘lponga o‘q yetmay qolganidanmi yoki to‘pponcha otilmaganidanmi, jallodlar uni o‘sha kecha otmaslikka qaror qiladi. Ammo shoir “O‘ldiringlar!

Men senlarning davlatingda, zamoningda yashashni istamayman! Senlarni ko‘rgim yo‘q”, deb baqiradi. Shunda Cho‘lponni bolta bilan chopib o‘ldirishgan. Toshkent shahridagi hozirgi Shahidlar xiyoboni hududida 4-oktabr qirg‘ini amalga oshirilgan. Atrofdagi aholi o‘q ovozini eshitmasligi uchun motor yoqib qo‘yib, oqshomdan tongga qadar mahbuslar otilgan va barchasi bitta chuqurga ko‘milgan. Keyinchalik suyaklar Oqil ota qabristoniga tashilib, bitta umumiy qabrga ko‘miladi. Abdulhamid Cho‘lpon juda qisqa, bor-yo‘g‘i qirq yil umr ko‘rdi. Uning hayot yo‘li bir-biridan tubdan farq qiluvchi, tarixiy voqealarga boy Turkistondagi siyosiy va ma‘naviy o‘zgarishlar ko‘zga tashlangan ikki davr chegarasida o‘tdi. Agar ularning birinchisi o‘zida taraqqiyparvar g‘oyalari bilan turkistonliklarning milliy o‘zligini uyg‘otgan eng ziyoli kuchlarni jamlagan jadidchilikning yuzaga kelishi va rivojlanishi bilan ifodalangan bo‘lsa, ikkinchisi uni yo‘q qildi va “baxtli kelajak” haqidagi tasavvurlarni ostin-ustun qilib tashladi, jamiyatni o‘zgartirib, sanoatni yuksaltirish va “madaniy inqilob” niqobi ostida fojeali voqealarga yo‘l ochdi.

Dastlabki paytlarda qudratli hayot to‘lqini Abdulhamid Cho‘lponni mavhumlik girdobidan olib chiqib, keng xalq ommasining she‘riyatdagi qahramoniga aylantirdi. Iste’dod uni yuksak cho‘qqilarga olib chiqdi, lekin tez orada u jamiyatning ovloq joylariga uloqtirildi. Uning murakkab hayoti zamon taloto‘plarida yanchilgan taqdirlardan biri edi. Cho‘lpon shaxsini bilish va uni oxirigacha tushunish, betakrorligini his qilish, buyukligi va qudratini anglab yetish uchun u qanday davrda yashaganini hisobga olish zarur.

Biz o'rganayotgan muammoga shu nuqtayi nazardan yondashib Cho'lpon yashab faoliyat yuritgan davrni ikki bosqichga bo'lish mumkin: XX asr boshlaridan 20 yillar o'rtalarigacha va 20 yillar o'rtalaridan uning taqdiri fojeali yakun topgan 1937-yilgacha. Dastlab taqdir uni rosa siyladi.

Uning iste'dodi jadidchilik g'oyalari bilan birga kamolga yetdi va hayotga tatbiq etildi. Abdulhamidning tug'ilishi ushbu oqim shakllangan vaqtga to'g'ri kelgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllangan ijtimoiy fikr o'z davrining eng taraqqiyparvar kishilarini jadidchilik maydoniga olib chiqdi. Ular orasida Fitrat, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalar qatorida nafaqat shoir, balki faol ma'rifatchi, ilk muxtor respublikalarning tuzilishidagi ishtirokini hisobga olganda siyosiy arbob ham bo'lgan Abdulhamid Cho'lpon bor edi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Turkiyada Cho'lpon shaxsiga bo'lgan qiziqish, shuningdek, "Cho'lpon" romanining turk tiliga tarjima qilinishi turk adabiy-hayotida O'zbekistonga, o'zbek adabiyotiga qiziqish katta ekanidan dalolatdir va bu ikki qardosh xalq adabiyotlarini yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Jadid adabiyotidagi vakillarini ijodini o'rganishdan maqsad xotirasini abadiylashtirish va har bir jadid namoyondasini ibrat maktabi qilib ko'rsatish. Ular millat uchun fidoyilik ko'rsatgan haqiqiy millatparvardir. Jadidlarni o'rgangan har qanday o'zbekni qalbida o'zining tuprog'iga bo'lgan mehr-muruvvat tuyg'usi boshqacha tus oladi.

Hayotga boshqa nazar bilan qaraydi. Mahmudxo'ja Behbudiy millatning haqini talab qiladigan, Abdulla Avloniydek kuchli nosir, Cho'lpondек adabiyotning yorqin yulduzi bo'lish har bir yosh qalb burchidir. Haqiqat, to'g'rilik, adolat jadidlarning chin ma'nodagi hayot konsepsiyasi.

## REFERENCES

1. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug'bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Axmedov. Milliy Uyg'onish davri adabiyot - Toshkent:Ma'naviyat, 2004.
2. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon. Qor qo'ynidagi lola - T.: Sharq, 2019.
3. Dilmurod Quronov. Cho'lpon nasri poetikasi - T.:Sharq, 2019.